

BOLALARDAGI DEVIANT XULQ ATVOR VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Qo'ziyev Mahmudjon Atanazar o'g'li

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

33-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar va o‘smirlar orasida uchraydigan deviant xulq-atvor tushunchasi, uning asosiy ko‘rinishlari, yuzaga kelish sabablari hamda ta’lim muassasalarida psixologik xizmat orqali bunday xulq-atvorni bartaraf etishning samarali yo‘llari yoritib berilgan. Shuningdek, maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, ijtimoiy moslashuv, psixologik profilaktika, bolalar psixologiyasi, risk guruhi.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bolalar shaxsining sog‘lom shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ayrim hollarda bolalar va o‘smirlar tomonidan ijtimoiy me’yor va qoidalarga zid bo‘lgan xatti-harakatlar kuzatiladi. Bunday holatlar deviant xulq-atvor deb ataladi. Deviant xulq-atvor nafaqat bolaning shaxsiy rivojlanishiga, balki sinf jamoasi, oila va jamiyatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu muammoni erta aniqlash va bartaraf etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Deviant xulq-atvor — bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlardan og‘ishgan xatti-harakatlaridir. Bolalarda bu holat ko‘pincha ongli ravishda emas, balki psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillar ta’sirida shakllanadi.

Deviant xulq-atvor doimiy xarakter kasb etsa, bolaning ijtimoiy moslashuvi qiyinlashadi va kelajakdagi hayot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalarda deviant xulq-atvor quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

darsga befarqlik, muntazam sababsiz dars qoldirish;

yolg'on gapirish va o'g'rilik holatlari;
tajovuzkorlik, urishish, zo'ravonlikka moyillik;
kattalarga bo'ysunmaslik, qoidalarga qarshi chiqish;
sinfdoshlar bilan nizolar, ijtimoiy yakkalanish;
intizomsizlik va mas'uliyatsizlik;
zararli odatlarga qiziqish (erta yoshda).

Bolalarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga bir qator omillar sabab bo'ladi:

1. Oilaviy omillar

nizoli oila muhiti;
ota-onaning e'tiborsizligi;
haddan tashqari qattiqqo'llik yoki ortiqcha erkalatish;
oiladagi ajralish va ruhiy bosim.

2. Ijtimoiy omillar

salbiy tengdoshlar ta'siri;
ijtimoiy nazoratning sustligi;
internet va ommaviy axborot vositalaridagi salbiy kontent.

3. Psixologik omillar

emotsional beqarorlik;
o'ziga ishonchsizlik;
stress va ichki ziddiyatlar;
yosh davriga xos inqirozlar.

4. Maktab muhiti bilan bog'liq omillar

pedagogik e'tiborsizlik;
o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi salbiy munosabat;
muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv.

Deviant xulq-atvorni erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi usullardan foydalaniladi:

kuzatuv va suhbat;
psixologik test va so'rovnomalar;
ota-ona va sinf rahbari bilan hamkorlik;
bolaning ijtimoiy moslashuv darajasini tahlil qilish

1. Psixologik profilaktika
tarbiyaviy suhbatlar;
ijtimoiy-psixologik treninglar;
emotsiyalarni boshqarish mashg'ulotlari.

2. Individual psixologik ishlar
individual konsultatsiyalar;
muammo sabablarini aniqlash;
o'z-o'zini anglashni rivojlantirish.

3. Guruhiiy mashg'ulotlar
ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
muloqot madaniyatini shakllantirish;
jamoaga moslashuvni kuchaytirish.

4. Ota-onalar bilan ishlash
psixologik maslahatlar;
ota-onalarni pedagogik savodxonligini oshirish;
oilaviy muhitni sog'lomlashtirish.

5. Maktab va mutaxassislar hamkorligi
sinf rahbari, psixolog va ijtimoiy pedagog hamkorligi;
risk guruhidagi bolalar bilan tizimli ish olib borish.

Bolalardagi deviant xulq-atvor murakkab va ko'p omilli muammo bo'lib, uni bartaraf etishda tizimli yondashuv talab etiladi. Maktab, oila va psixologik xizmatning o'zaro hamkorligi orqali bolalarda ijtimoiy me'yorlarga mos xulq-atvorni

shakllantirish mumkin. Erta profilaktika ishlari esa salbiy oqibatlarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi.

Psixologiyada deviant, ya'ni oq'uvchi axloqning turli shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislarining tadqiqot obekti hisoblanadi.

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindoshurug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Shaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

- 1) moslashuv;
- 2) qarshilik ko'rsatish;
- 3) ro'para bo'lish;
- 4) vaziyatdan qochish;

5) mensimaslik.

Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Ular shuningdek, nomukammalligi, konservativligi, bir qolipdaligi, ekzistensial qadriyatlarni ezib tashlashi yoki ochiqchasiga insonparvarlikka qarshi faoliyat olib borishi sababli, moslashishga «loyiq bo'lmagan» borliqqa moslashishni istamaslikni nazarda tutishlari ham mumkin. Borliqni mensimaslik, shaxs o'zining shaxsiy tor dunyosida mavjud bo'lgan holda borliqning talablari va me'yorlarini hisobga olmaganida, uning hayoti va faoliyatining avtonomizatsiyalashuvida (mustaqilligida) namoyon bo'ladi. Bunda na to'qnashuvlar, na qarshi harakatlar va na voqelikdan chiqib ketish holati sodir bo'ladi.

Xulq-atvordagi og'ishlarni tasniflashga bo'lgan ko'pgina urinishlarga qaramay tadqiqotchilar yagona mukammal tasnifni tuzishga hozircha hali muvaffaq bo'lishgani yo'q. Batafsil bayon qilish bir talay qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Deviant xulq-atvor muammosida intizomiy xarakter asosiy sabab sifatida belgilanadi. Afsuski shaxsdagi deviant og'ishlar xaqidagi yagona mukammal ta'rif yo'q. Ushbu tushunchaning murakkabligi shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib ko'pgina fanlar tomonidan o'ziga xos mazmun nuqtai nazaridan o'rganiladi. Hozirgi vaqtda ushbu ibora asosan ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, rasman o'rnatilagan (belgilangan) yoki mavjud jamiyatda yuzaga kelgan, shakllangan normalarga mutloq mos kelmaydigan "xatti-harakat, inson harakati" ya'ni deviant xulq-atvor. Bu tushuncha psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida qo'llanilsa, ikkinchidan jamiyatda rasman belgilangan yoki shakllangan normalarga mutloq mos kelmaydigan, nisbatan ommaviy va barqaror shaklda bo'lgan inson faoliyatining ifoda etuvchi "ijtimoiy hodisa" sifatida u (ya'ni deviant xulq atvor) ham qo'llaniladi.

Deviant xulq-atvor ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilar ekan, uni bir necha asoslarga ko'ra guruhlariga bo'lish mumkin:

- ommaviy va individual bog'liqlik ko'lamini ajratish;

- pozitiv va negativ (kishini g'ashini keltiradigan yomon natija va yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan xavfni tug'dirish) holatlarning oqibatlariga e'tibor berish;
- sub'ektga ko'ra - ravshan og'ish qiyofasi, norasmiy guruhlar (masalan, bosqinchilik to'dalaridagi faoliyat), rasmiy tizimlardagi faoliyat, shartli ijtimoiy guruhlar (ichkilikbozlik);
- ob'ektga ko'ra - iqtisodiy, maishiy, mol-mulkka oid qoidalarni buzishlar va boshqalar;
- davriyligiga ko'ra - bir martali va uzoq muddatli;
- me'yorlarni buzish tartibiga ko'ra - jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish, axloqsizlik, daydilik, foshihabozlik, bezorilik, tekinxo'rlik, korrupsiya, byurokratizm, terrorizm, rasizm, genotsid, tuzumga qarshi munosabat.

Olimlarning fikricha, shaxs xulq-atvori jamiyat bilan munosabatlarda quyidagi to'rt xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: me'yoriy xulq-atvor, ijtimoiypsixologik ko'nikish, deviant xulq-atvor va huquqbuzarlik.

XULOSA

Deviant xulq-atvorli bolalar yashayotgan oilalardagi psixologik muhitni o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, bu oilalarda ota-onalar ko'pincha salbiy emotsionalhissiy holatlarni boshlaridan kechiradilar, tushkun kayfiyatda yuradilar, kelajakka umidsizlik bilan qaraydilar, xarakterlarida qo'pollik, qaysarlik, o'zgalarga yaxshilikni ravo ko'rmaslik kabi salbiy sifatlar aks eta boshlaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday kayfiyatdagi ota-ona deviant xulq-atvorli bolasini muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga qodir emas. Avvalo, bunday ota-onalarning o'zlari ijtimoiy psixologik yordamga muhtojdir.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational,

natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022
10031009

2. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.

4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.

5. Ziyo.net